



## Historiography of Uzbekistan-US relations

Khadicha SAIDULLAYEVA<sup>1</sup>

Tashkent State Pedagogical University named after Nizomi

### ARTICLE INFO

**Article history:**

Received August 2023

Received in revised form

15 September 2023

Accepted 25 September 2023

Available online

15 October 2023

### ABSTRACT

This article, based on facts, highlights the level of research into multilateral cooperation relations between Uzbekistan and the United States.

2181-1415/© 2023 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-1415-vol4-iss8/S-pp289-296>

This is an open access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

**Keywords:**

diplomacy,  
foreign policy,  
international cooperation,  
ambassador,  
regional cooperation,  
international organization

## O'zbekiston – AQSh aloqalarining tarixshunosligi

### АННОТАЦИЯ

Ushbu maqolada O'zbekiston-AQSh davlatlari o'rtasidagi ko'p tomonlama hamkorlik aloqalarining o'rganilganlik darajasi faktlarga asoslangan holda yoritilgan.

**Калит сўзлар:**

diplomatiya,  
tashqi siyosat,  
xalqaro hamkorlik,  
elchi,  
mintaqaviy hamkorlik,  
xalqaro tashkilot

## Историография узбекско-американских отношений

### АННОТАЦИЯ

В данной статье на основе фактов освещен уровень исследования отношений многостороннего сотрудничества между Узбекистаном и США.

**Ключевые слова:**

дипломатия,  
внешняя политика,  
международное  
сотрудничество, посол,  
региональное  
сотрудничество,  
международная  
организация

<sup>1</sup>Doctoral student, Tashkent State Pedagogical University named after Nizomi

Tarix fanining ijtimoiy ahamiyati, jamiyat taraqqiyotida tarixiy bilimlarning o'rne, tarixiy tafakkurning rivojlanish dinamikasini har taraflama o'rganish va to'plangan tarixiy tajribalarga xolisona, tahliliy baho berish tarixshunoslikning bosh vazifasidir. Tarixshunoslikning birlamchi sharti esa, tadqiqot ob'ektiga tortilgan muammoning mazmun -mohiyati aks etgan barcha turdagi adabiyotlarni chuqur tahlil etish, ularning yutuq va kamchiliklarini ko'ra bilish, turli hil qarashlar va yondashuvlarni taqqoslash, mavzu doirasida izlanishlar olib borgan tarixchi-olimning intellektual mushohadasi va unga ta'sir etgan omillar hamda tashkiliy jarayonlar tizimini, o'rganilayotgan davr nuqtai nazarini e'tibordan chetda qoldirmaslik hisoblanadi.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan tashqi faoliyat doirasidagi davlat siyosati, xalqaro aloqalarning yangi modelini shakllantirishda va xorijiy mamlakatlar bilan aloqalarni yanada rivojlantirishda Yevropa davlatlari va AQSh bilan hamkorlik ham alohida ahamiyatga ega. Fransiya, Shvedsariya, Belgiya AQSh davlatlarining siyosiy tuzumi, e'tiqodi va milliy tarkibining turli-tumanligi, O'zbekiston Respublikasining ushbu mamlakatlar bilan olib borayotgan madaniy aloqalar tarixini tadqiq etish ular o'rtasidagi munosabatlarni taqqoslash va o'ziga xos xususiyatlarni ochib berish imkoniyatini beradi. O'zbekistonning xalqaro munosabatlari masalalari, jumladan, AQSh bilan aloqalarning tarixshunosligi, ijtimoiy-siyosiy muhim bir tarmoq sifatida doimiy ravishda tarixchi, siyosatshunos, etnograf va boshqa jamiyatshunos olimlarning e'tiborini o'ziga jalb qilib kelgan.

Shu nuqtai nazardan, O'zbekiston Respublikasining Amerika Qo'shma Shtatlari bilan hamkorlik aloqalari tarixi mavzusini tadqiq etishda mavzuga oid ilmiy adabiyotlar, ilmiy tadqiqotlar va ilmiy-tahliliy materiallarni qiyosiy tahlil etish masalaning mohiyatini ochishda muhim ahamiyatga egadir. Masalaning tarixshunoslik tahliliga kura, bugungi kunga qadar mavzu doirasida yaratilgan tadqiqotlarni davri, geografik hududi, tili va mohiyatidan kelib chiqqan holda shartli ravishda ikki guruhga:

- 1) mahalliy olimlar tomonidan yaratilgan adabiyotlar;
- 2) xorijda yaratilgan tadqiqotlarga ajratish mumkin.

Birinchi guruhga kiruvchi adabiyotlarni tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, AQSh va O'zbekiston aloqalari tarixi ikki yo'nalishda o'rganilgan. Birinchi yo'nalish tadqiqotlarida asosan, O'zbekistonning jahon hamjamiyatidagi o'rne, ishtiroki va xalqaro munosabatlari tarixini yoritish davomida O'zbekistonning AQSh bilan aloqalariga o'rganilgan bo'lsa, ikkinchi yo'nalishdagi tadqiqotlar to'g'ridan to'g'ri AQSh va O'zbekiston aloqalariga bag'ishlangan bo'lib asosan ikki davlat o'rtasidagi siyosiy, iqtisodiy va madaniy aloqalarining rivojlanish tarixiga bag'ishlangan. Mazkur yo'nalishdagi adabiyotlarni tarixshunoslikning yangicha konseptual-metodologik talablari asosida o'rganish maqsadga muvofiqdir.

Mustaqillik yillarida bir guruh siyosatchi, iqtisodchi va tarixchi olimlar tomonidan xalqaro aloqalarga oid adabiyotlarda mustaqillik yillarida milliy tarixshunoslikning yangi metodologik tamoyillariga suyangan holda tashqi faoliyatdagi turli bosqich va yo'nalishlarni qamrab olib, eski aqidalardan xalos bo'lishga intilayotganligi bilan ajralib turadi. Xususan, S.Sh.Sharapova, Z.E.Nuriddinov, X.G.G'ulomov, A.G.Xolliev, O'.Mavlonov va D.Mahkamova, A.Qirg'izboev, D.Azimova, S.Usmonov, M.Alimbaev, U.Saidov monografiyalari va S.A.Po'latova, S.Sh.Sharapova, R.T.Juraev, A.G.Xolliev, E.Z.Nuriddinov, Sun Don Gi, N.Ziyamov, I.Ne'matov, D.D.Kurbanov, D.A.Mahkamova, D.Misharev, A.Sultanov larning doktorlik va nomzodlik dissertatsiyalarida keng qamrovli faktik

materiallarni tadqiq etish orqali o'zbek davlatining tashqi siyosati va xorijiy davlatlar bilan aloqalarining o'zaro manfaatli hamkorliklari har tomonlama yoritib berilgan. Respublikaning yangi ko'rinishdagi xalqaro faoliyatining shakllanishi va amalga oshirishi batafsil tahlil etilgan, uning jahon hamjamiyatiga xos bo'lgan xalqaro hayotning barcha sohalarida to'laqonli ishtirok etish jarayonlari ochib berilgan.

Masalan, S.Sh.Sharapova O'zbekiston Respublikasi tashqi siyosatining turli jihatlari: ijtimoiy va siyosiy xususiyatlari, ijtimoiy-siyosiy va madaniy shakllari hamda tashqi siyosatdagi milliy, hududiy, global qiziqishlarini "Vneshnyaya politika Respubliki Uzbekistan: kulturno-istoricheskiy i sotsialnyy faktor" nomli asarida va tadqiqotlarida keng qamrovli yoritib bergan. Ushbu yo'nalishdagi ishlar ichida E.Nuriddinov ning tadqiqotlarini alohida ta'kidlash joizdir. Ushbu tadqiqotda keng qamrovli faktik materiallarni tadqiq etish orqali o'zbek davlatining Yevropa mamlakatlari hamda ularning ijtimoiy-siyosiy bo'g'inlari bilan o'zaro manfaatli hamkorliklari har tomonlama yoritib berilgan, respublikamizning yangi tipdagi xalqaro faoliyatining shakllanish va amalga oshirilishi batafsil tahlil etilgan, uning jahon hamjamiyatiga xos bo'lgan xalqaro hayotning barcha sohalarida to'laqonli ishtirok etish jarayonlari ochib berilgan. Ular O'zbekiston Respublikasining Yevropaning turli mamlakatlari bilan munosabatlarni o'ziga xos yo'llarini qiyosiy taqqoslash va tegishli hulosalar chiqarish imkonini beradi. Bundan tashqari, A.G.Xolliev tadqiqotlari O'zbekistonning Buyuk Britaniya va AQSh bilan ilmiy-texnikaviy, madaniy aloqalarini ilmiy hamkorlik munosabatlariga to'xtalib o'tgan.

O'zbekiston-Amerika munosabatlarini o'rganishda M.Sh.Yuldashevning "1992-2012 yillardagi AQSh-O'zbekiston munosabatlari xronologiyasi" ma'lumotnoma to'plamida ikki davlat o'rtasidagi hamkorlik siyosiy, iqtisodiy va gumanitar sohalariga bo'lib o'rganilgan. Mazkur to'plam Amerika Shtatlari va O'zbekiston Respublikasi o'rtasidagi 20 yillik diplomatik munosabatlar jarayonida sodir bo'lgan voqealar, dalillar va ikki davlat munosabatidagi muhim sanalarni tizimlashtirib o'rgangan. Shu bilan birga, Mavlon Shukurzoda o'zining mazkur to'plamida ikki tomonlama munosabatlar rivojlanishidagi muhim voqealar, ikki davlat rahbarlarining rasmiy tashriflarini hamda o'zaro munosabatlardagi amalga oshirilgan loyiha va qabul qilingan qonun va xujjatlarni xronologik tartibda umumlashtirib, tizimlashtirgan. Shuningdek, ikki davlat o'rtasida bo'lib o'tgan rasmiy tashriflar, muzokaralar va maslahatlashuvlar siyosiy, iqtisodiy va gumanitar sohalariga bo'lib o'rganilgan, tomonlararo munosabatlarni 1992 yil diplomatik munosabatlar o'rnatilgan davrdan boshlab 2012 yilga iyunga qadar hamkorlik faoliyatini 3ta asosiy sohada rivojlanishini yillar ketma-ketligida tizimlashtirgan.

Mavlon Shukurzoda o'z tadqiqotlarida AQSh-O'zbekiston hamkorligini xronologiyasi va rivojlanish evolutsiyasini ochib bergan. Uning 2016 yilda nashr qilingan "AQSh-O'zbekiston hamkorligi fakt va raqamlarda" asarida Amerika qo'shma shtatlari bilan O'zbekiston Respublikasi o'rtasidagi diplomatik munosabatlar rivojlanishining 25 yilligi tahlil etilgan. Mazkur axborot-ma'lumotnoma to'plamida 1992-2016 yillardagi davrda ikkala tomon o'rtasida yuz bergan asosiy voqealar, muhim faktlar va sanalar umumlashtirilib, bir tizimga solingan. Kitobda davlat tuzilmalarining rasmiy, siyosiy va qonunchilikka oid ma'lumotlari, turli ilmiy-tahlil markazlari, xalqaro va madaniy-ma'rifiy tashkilotlar, Do'stlik jamiyatlarining norasmiy manbalari, ommaviy axborot vositalari, shu jumladan, internet-resurslar va ma'lumotnomalar, mutaxassislar va ekspertlar bilan shaxsiy muloqotlardan foydalanilgan. Hodisalar siyosiy, iqtisodiy va gumanitar sohadagi hamkorlikning asosiy yo'nalishlari bo'yicha sanab o'tilgan.

Tadqiqotchi D.Xudoyberganova o'z tadqiqotlarida AQShning Markaziy Osiyoga bo'lgan tashqi siyosatini tahlil qilgan. Tadqiqot ishida tashqi siyosatdagi ustuvor yo'nalishlar xronologik, qiyosiy va istiqbolni baholash tahlil metodlari orqali o'rganilgan. Tahlil natijasida AQShning kelgusida Markaziy Osiyo mamlakatlariga strategiyasi oltita muhim yo'nalishda olib borilishi aniqlangan. Suverenitet va mustaqillikni qo'llab quvvatlash, Markaziy Osiyoda terrorchilik tahdidlarini kamaytirish, Markaziy Osiyo va Afg'oniston o'rtasidagi aloqani rag'batlantirish, qonun ustuvorligini isloh qilish, mintaqaga sarmoya kiritish kabi sohalar keng yoritilgan .

Mustaqillik yillarida O'zbekiston va AQSh o'rtasida fan va ta'lim sohasida amalga oshirilgan ishlar, ularning ahamiyati haqida tadqiqot olib borgan I.E. Raxmatov Fan va ta'lim sohasida ikki mamlakat hamkorligi tarixiy-xronologik jihatdan tahlil qilingan, ko'pgina loyihalarning natijalari haqida ma'lumotlar bergan. Ikki davlatning fan-ta'lim va boshqa sohalarda hamkorlik doirasida turli darajadagi dasturlar xayotga tadbiiq etilishi va bu borada AQSh Xalqaro taraqqiyot agentligi o'z dasturida ilgari surilgan demokratik an'analarni qaror toptirish, ta'limni rivojlantirish, sog'liqni saqlash, inson huquqlarini himoya qilish, oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash borasida yirik loyihalarni amalga oshirayotganligini ijobiy baholgan .

Fanlar akademiyasi huzuridagi O'zbekistonning eng yangi tarixini muvofiqlashtiruvchi-metodik markazi tadqiqotchisi Yuldasheva Guli Ismatullaevna o'zining "O'zbekiston-AQSh: strategik hamkorlikning yangi bosqichi" nomli maqolasida Prezident Sh.Mirziyoev rahbarligida O'zbekiston va AQSh o'rtasidagi strategik sheriklikning yangi bosqichini rivojlantirishning asosiy xususiyatlari, ustuvor yo'nalishlari va yo'nalishlari ochib berilgan. So'nggi oylarda dunyoda AQShning Markaziy Osiyo mintaqasi va Afg'onistondan yakuniy chiqishi haqidagi nuqtai nazar hukmronlik qilmoqda. Bundan farqli o'laroq, muallifning fikricha, AQSh-O'zbekiston munosabatlarning bugungi kundagi chuqurlashishi va kengayishi ikki tomonlama munosabatlarning yangi bosqichiga zamin hozirlanayotganidan dalolat beradi, bu butun Markaziy Osiyo mintaqasi, jumladan, Afg'onistonning geosiyosiy va iqtisodiy rivojlanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. . Buning tasdig'i sifatida ikki tomonlama hamkorlikning ichki siyosiy va iqtisodiy o'zgarishlar, xavfsizlik va gumanitar munosabatlar sohasidagi hamkorlik, AQSh "yumshoq diplomatiyasidagi o'zgarishlar", AQShning O'zbekistonda yanada faolroq, tajovuzkor siyosatga o'tishi kabi asosiy yo'nalishlari tahlil etilgan.

Xorijiy davlatlarda, jumladan Rossiya olimlari tomonidan AQShning Markaziy Osiyodagi manfaatlari tahliliga bag'ishlangan ko'plab ilmiy-tadqiqot ishlari mavjud. Ayniqsa, keyingi yillarda mazkur mavzuga doir Amerika va Rossiya ekspertlarining qiziqishi ortmoqda.

Rossiyada AQShning Markaziy Osiyodagi siyosatini o'rganish, birinchi navbatda, Rossiya Fanlar Akademiyasining Jahon iqtisodiyoti va xalqaro munosabatlar instituti, AQSh va Kanada instituti xodimlari tomonidan amalga oshiriladi. Rossiya Fanlar akademiyasi, Rossiya Tashqi ishlar vazirligining Moskva davlat xalqaro munosabatlar instituti, Rossiya Fanlar akademiyasining Uzoq Sharq institutlarida mazkur masalaga bag'ishlangan o'nlab tadqiqotlar qilingan.

E.V. Troiskiy "AQShning 1992-2000 yillarda Markaziy Osiyodagi siyosati " nomli nomzodlik dissertatsiyasida AQShning Markaziy Osiyodagi mintaqaviy xavfsizlik sohasidagi siyosatining mintaqaviy va mamlakatga xos jihatlari o'rtasidagi bog'liqlikni

tahlil qiladi. AQSh va mintaqa davlatlari o'rtasidagi siyosiy, harbiy, iqtisodiy sohalardagi munosabatlar mazmuni va dinamikasini tahlil qilgan.

S.A Parxomenkning "XXI asr boshlarida AQShning Markaziy Osiyodagi siyosati: manfaatlar, ustuvorliklar, yo'nalishlar va amalga oshirish shakllari" nomli nomzodlik dissertatsiyasida Rossiya va AQShning O'zbekistondagi tashqi siyosiy doktrinalarining qiyosiy tahlilini taqdim etgan. AQSh-O'zbekiston munosabatlari va Markaziy Osiyodagi yangi geosiyosiy vaziyat kontekstida yoritilgan bo'lib, bu postsovet davridagi Rossiya-O'zbekiston munosabatlarining yaxlit mohiyatini tushunish imkonini beradi.

M.Ogursovning "XX-XXI asrlar bo'yicha Rossiya va AQSh tashqi siyosatining O'zbekiston Respublikasida evolutsiyasi" mavzusidagi nomzodlik dissertatsiyasida ikki davlat va Markaziy Osiyo mintaqasi strategik tashqi siyosatining asosiy vektorlari va xususiyatlari ko'rsatilgan. AQSh va Rossiyaning O'zbekistondagi ustuvor yo'nalishlari evolyutsiyasi ikkinchisiga moliyaviy va harbiy yordam ko'rsatish ko'lami va dinamikasini tahlil qilish orqali ko'rib chiqilgan. O'zbekiston tashqi siyosati strategiyasining mazmuni va asosiy belgilari belgilab berilgan. Birinchi marta Markaziy Osiyodagi eng yirik davlatlarning geosiyosiy raqobati faktlaridan kelib chiqqan holda O'zbekiston tashqi siyosatining strategik yo'nalishining shakllanish tarixi ko'rib chiqilgan.

Rossiya va Amerika Qo'shma Shtatlarining tashqi siyosiy strategiyalari va tegishli kontseptsiyalari masalalarini o'rganish jarayonida ko'plab mahalliy va xorijiy ishlar tahlil qilindi. Rossiyalik dissertatsiya tadqiqotlari orasida ushbu mavzu bo'yicha O'zbekiston-Rossiya munosabatlari, AQSh, Xitoy va Rossiya o'rtasidagi mintaqa davlatlari bilan munosabatlariga oid asarlar mavjud. Ushbu mavzu bo'yicha qozog'istonlik tadqiqotchi J.M.Aldubasheva ning ishi dolzarb hisoblanadi. Dissertatsiya ishida AQShning Markaziy Osiyodagi tashqi siyosat strategiyasining xususiyatlari o'rganilgan. Xususan, AQShning postsovet davlatlariga nisbatan siyosatining asosiy maqsad, vazifalari va usullari ularning evolyutsiyasi va o'zgarishi nuqtai nazaridan ko'rib chiqiladi, AQShning mintaqa davlatlari bilan mustaqillik yillarida erishilgan natijalar tahlil qilingan. Muallif Markaziy Osiyo mamlakatlarini AQSh bilan hamkorligi samaradorligini oshirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqqan. Sovuq urush tugagandan so'ng, Amerikaning dunyo hukmronligiga qarshi bo'lganlarning yo'q qilinishi bilan Qo'shma Shtatlar uchun jahon imperiyasiga aylanish imkoniyati ochildi. Siyosatshunoslar "Amerika imperiyasi" deb atalgan davlatning tashkil topishi haqida gapira boshladilar. AQShning ilmiy va siyosiy doiralarida Amerika qudrati AQShning jahon hukmronligini o'rnatishning asosiy quroliga aylanishi mumkinligi haqidagi g'oya qat'iy o'rnatildi. Shu bilan birga, amerikalik tadqiqotchilarning aksariyati bipolyar tizim yemirilishidan keyingi hozirgi xalqaro vaziyatga va AQShning xalqaro tizimdagi yangi rolga real baho berdilar. Tadqiqotchilar Qo'shma Shtatlar mutlaq gegemonlik rolini o'z zimmasiga olishi va siyosatni kuchli pozitsiyadan olib borishiga qarshi edi. Liberal akademiya tarafdorlari milliy manfaatlarni aks ettiruvchi va mamlakatning ichki resurslarini hisobga oladigan pragmatik, muvozanatli yondashuv tarafdori edilar.

Qozoqistonlik tadqiqotchilardan Zarina Kakenova o'z tadqiqotlarida AQSh va Markaziy Osiyo davlatlari o'rtasidagi harbiy-siyosiy hamkorlik msalalarini tahlil qiladi. Uning fikriga ko'ra, Markaziy Osiyo mintaqasi xalqaro munosabatlardagi muhim mintaqalardan biriga aylandi. Sovet Ittifoqi parchalanganidan keyin mintaqa davlatlari bir qator muammolarga duch keldi. Mustaqillikka erishgan yangi davlatlarning siyosatini shakllantirish va xavfsizlik masalalariga asosan geosiyosiy vaziyat va buyuk davlatlar bilan

qo'shnichilik ta'sir ko'rsatdi. Ushbu maqolada AQSh o'rtasidagi harbiy-siyosiy hamkorlik va Markaziy Osiyo davlatlari turli o'lchovlarda ko'rib chiqiladi. Avvalo, biz AQShning harbiy-siyosiy hamkorligi dinamikasini tahlil qilamiz. mintaqaviy xavfsizlik nuqtai nazaridan mintaqaning har bir davlati bilan. Shu munosabat bilan muhim masalalardan biri - AQSh manfaatlari ko'rib chiqiladi. Qozog'iston hududida joylashgan Sovet yadro qurollari atrofida. Muallif davlatlar o'rtasidagi munosabatlarni terrorizmga qarshi kurash kontekstida tahlil qiladi. 11-sentabr voqealaridan keyin AQSh. terrorizmga qarshi urush e'lon qildi. Terrorizmga qarshi kurash AQShning asosiy muammolaridan biriga aylandi. tashqi siyosat. Afg'oniston terrorizmga qarshi kurash bo'yicha birinchi davlatga aylandi. Markaziy Osiyo davlatlari "jabhadagi davlatlar" sifatida tilga olingan. Mintaqaning G'arb va Sharq chorrahasida joylashgani bu hududni tranzit yo'nalishlari uchun ahamiyatli qiladi.

Muallif AQSh o'rtasidagi ushbu sohadagi munosabatlarni Markaziy Osiyo davlatlari va NATO doirasida ko'rib chiqadi. Yuqorida qayd etilgan muammolar mintaqadagi xalqaro munosabatlarga qanday ta'sir qilishini muhokama qiladi.

Markaziy Osiyo respublikalari mustaqillikka erishgandan so'ng Turkiya bilan yaqin aloqalar o'rnatilgach, turk tadqiqotchilarining mintaqa xalqlari tarixi va madaniyatiga bo'lgan qiziqishi yanada ortdi. Sovetlar boshqaruvi davrida Turkiyada Markaziy Osiyo Respublikalari bilan bog'liq tadqiqotlar yetarli bo'lmagani uchun ilmiy bo'shliq yuzaga kelgan edi. Biroq, Respublikalar mustaqillikka erishgan dastlabki yillardan boshlab Turkiyada mintaqa bilan bog'liq barcha sohalardagi (iqtisodiy, madaniy) aloqalarni kengaytirish maqsadida ham rasmiy, ham nodavlat tashkilotlar va ilmiy markazlar tashkil topdi. Ushbu muassasalar davlatga bog'liq rasmiy tashkilotlar, universitetlar qoshidagi ilmiy tadqiqot markazlari, xayriya jamg'armalari, fondlar va jamoat tashkilotlari sifatida faoliyat olib bormoqdi.

Turkiyalik tadqiqotchi Sait So'nmazning "Xavfsizlik muammolarining AQSh-O'zbekiston munosabatlariga ta'siri" nomli maqolasida O'zbekiston va AQSh munosabatlarida mintaqaviy xavfsizlik masalasi tahlil qilingan. Davlatlarning tashqi siyosatini belgilashda samarali omillardan biri milliy xavfsizlik masalalaridir. Bu, ayniqsa, umumiy xavfsizlik muammolarini boshdan kechirayotgan va ushbu vaziyatdan ta'sirlangan mamlakatlarning ikki tomonlama munosabatlariga taalluqlidir. Mustaqillikka erishgach, O'zbekiston ma'muriyati o'zining asosiy tahdidini "fundamentalizm" deb bildi. Shunday qilib, mustaqillikning dastlabki yillarida Toshkent bu tahdidni bartaraf etish uchun Amerika Qo'shma Shtatlari (AQSh) bilan yaqinlashishga harakat qildi. Bunga javoban AQSh O'zbekistonga nisbatan keng qamrovli siyosat ishlab chiqmadi. Ammo AQSh 11-sentabr hujumlari bilan ham xuddi shunday xavfsizlik tahdidiga duch keldi. 11-sentabr xurujlaridan keyin Markaziy Osiyoning geosiyosiy ahamiyati oshishi bilan birga Vashington O'zbekiston bilan munosabatlarini kuchaytirdi va ikki tomonlama munosabatlar strategik sheriklik darajasiga ko'tarildi. Umumiy tahdid tushunchasi tufayli AQSh O'zbekistonning geosiyosiy mavqeidan foydalanib, Tolibon ustidan g'alaba qozondi. Ayni paytda O'zbekiston ma'muriyati bu urush orqali "radikal" harakatlardan ko'p qochib qoldi. Biroq sobiq ittifoq respublikalarida AQSh tomonidan qo'llab-quvvatlangan rangli inqiloblarning paydo bo'lishi bu munosabatlarni buzdi. Ammo so'nggi yillarda Kerimov ham, Obama ma'muriyati ham O'zbek Amerika munosabatlarini o'zgartirishga harakat qildi. 2011-yildan buyon ijobiy o'zgarishlar kuzatilmoqda. Chunki Pokiston ma'muriyati bilan muammoli munosabatlarga ega bo'lgan AQShga yana O'zbekiston yerlari kerak. Ushbu tadqiqotda Sovuq urushdan keyingi davrda yagona super davlatga aylangan AQSh

va Markaziy Osiyoning eng qudratli davlati O'zbekiston o'rtasidagi ikki tomonlama munosabatlar xavfsizlik masalalari kontekstida tahlil qilinadi.

“Sovet Ittifoqi parchalanganidan keyin AQShning Markaziy Osiyo siyosati mavzusida doktorlik dissertatsiyasini yozgan Turkiyalik tadqiqotchi Satlik Amanov o'z tadqiqotlarida Siyosiy, harbiy, iqtisodiy va strategik qayta qurish jarayonida bo'lgan beshta yangi mustaqil davlatning (Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston, Turkmaniston va O'zbekiston) paydo bo'lishi xalqaro munosabatlar tizimida Markaziy Osiyo quyi tizimining shakllanishini boshlab berdi. Boshqa tomondan, bu mintaqa mintaqaviy bo'lmagan kuchlar bilan bir qatorda Turkiya, Rossiya, Xitoy, Eron va Pokiston kabi qo'shni davlatlarning manfaatlarini kesishgan va ta'sir o'tkazish uchun kurash olib boriladigan joyga aylangan. Sovet Ittifoqi parchalanganidan keyin AQShning Markaziy Osiyo mintaqasi va u yerdagi mamlakatlarga nisbatan “yaxlit” sifatida olib borayotgan siyosati tadqiqot predmeti bo'lsa, bu siyosatlarning shakllanishiga ta'sir etuvchi omillar va asosiy tendensiyalar o'rganilmoqda. AQSh va mintaqa davlatlari o'rtasidagi hamkorlikda o'z aksini topgan masalalar shu doirada muhokama qilinadi. Tadqiqotda AQShning Markaziy Osiyodagi tashqi siyosat maqsadlarini oshirish, Afg'onistondagi amaliyotlarini davom ettirish uchun harbiy ishtirokini oshirish, shuningdek, diplomatiya, ikki tomonlama munosabatlar va tashqi yordam kabi tarkibiy qismlarni amalga oshirishga qaratilgan. Satlik Amanov tadqiqotida yozilishicha, AQShning Markaziy Osiyo mintaqasi bilan aloqalari darajasi 1990-yillar davomida siyosiy va akademik doiralarda katta munozaralarga sabab bo'ldi. Ba'zilar Kaspiy dengizi sohilidagi mamlakatlarning energiya boyligi mintaqani muhim deb hisoblasa-da, ko'plab energetika mutaxassislari mintaqaning global energiya bozoriga qo'shgan hissasi Fors ko'rfazi mamlakatlari va Rossiyaga nisbatan ancha past, deb hisoblashadi. Amerika Qo'shma Shtatlari mintaqadagi xavfsizlik va iqtisodiy manfaatlarini imkon qadar tor doirada baholasada, amerikalik siyosatchilar Markaziy Osiyo rejimlarining ishonchligi borasida bir qarorga kelmagan va ularning inson huquqlari, iqtisodiy va tashqi siyosati bilan ko'proq shug'ullangan. Mustaqillikka erishgandan keyingi o'n yil ichida Qozog'iston, Qirg'iziston, O'zbekiston, Tojikiston va Turkmaniston bilan munosabatlarni turli darajada va shiddatda rivojlantirgan bo'lsada, mintaqa, uning geografik joylashuvi, quruqlikdagi yopiq ekanligi va Amerika manfaatlaridan uzoqligi sababli bu Vashingtonning ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lmaganini ta'kidlaydi.

Xoja Ahmet Yassaviy nomidagi Xalqaro Turk-Qozoq universiteti tomonidan M. Akif muallifligida yozilgan “Amerika Qo'shma Shtatlarining Markaziy Osiyo siyosati” monografiyasida AQSh va Markaziy Osiyo aloqalari tahlil qilingan. Asarda keltirilishicha Rossiya va Xitoyga muqobil ravishda AQSh mintaqaviy xavfsizlik parametrlarini turli formatlarda kiritishi mumkin.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. G.A.Hidoyatov “Основы дипломатии”- 2022.
2. N. Shomiy “Zafarnoma”.-1996
3. O'zbek diplomatiyasi tarixidan.-2003
4. N.Ernazarov “O'zbekistonning Osiyo davlatlari bilan madaniy aloqalari”.-dis,-2018.

5. D.B. Sayfullayev “Mustaqillik davrida O‘zbekiston diplomatiyasining shakllanishi va rivojlanishi” .-dis.-2017.
6. “Taraqqiyot va hamkorlik yo‘llarida. O‘zbekiston tashqi siyosati va diplomatiyasi”.-1993.
7. A. X. Parpiyev “O‘zbekiston diplomatiyasining tarixi va istiqbollari”. Maqola. 2021.
8. B. Shermuhammedov “Yangi O‘zbekiston-xalqaro diplomatiya markaziga aylanmoqda”. Maqola. 2022.
9. Nuriddinov E. Становление и дальнейшее развитие на этапе обновления страны внешнеполитической деятельности Республики Узбекистан. Е., 2021
10. Abdunarzullayevna, S. X. (2023). O ‘ZBEKISTON-AQSH HAMKORLIK ALOQALARINING OMMAVIY AXBOROT VOSITALARIDA YORITILISHI. PEDAGOGICAL SCIENCES AND TEACHING METHODS, 2(24), 216-219.
11. Saydullayeva, X. (2022). USE OF HISTORICAL SOURCES IN ILLUMINATING THE IMAGE OF GREAT PEOPLE. Science and Innovation, 1(5), 94-100.
12. Komil o‘g‘li, J. N. JAMIYATDA XOTIN-QIZLARNING ZO ‘RAVONLIK JINOYATI JABRLANUVCHISI BO ‘LIB QOLISHINING OLDINI OLISH MASALALARI.
13. O‘G‘Li, J. N. K. (2023). YANGI O ‘ZBEKISTONNING SHAROITIDA ADLIYA VAZIRLIGI YURIDIK TEXNIKUMLARI FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI. Ta’lim fidoyilari, 4(1), 136-141.
14. <https://kun.uz/uz/news/2022/06/24/ozbekiston-aqsh-hamkorlik-va-sherikchilik-alogalari-rivojlanyapti>.
15. <https://qalampir.uz/uz/news/ak-sh-2021-yilda-uzbekiston-bilan-yanada-yakin-hamkorlik-kilmokchi>